



ADABIY TA'LIMGA INNOVATION YONDASHUV

*“University of economics and pedagogy “NOTM
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası
o'qituvchisi **Qanoatova Nazokatxon Sotvoldi qizi**
Andijon iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs 06-guruh
talabasi **Kenjaboyeva Sevara Mirzaorif qizi***

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiy ta'limga innovatsion yondashuv davr talabi ekanligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: global ta'lim, xalqaro standart, konseptual yondashuv, uzluksiz ta'lim.

Аннотация: В данной статье рассматривается, что инновационный подход к литературному образованию является требованием времени.

Ключевые слова: глобальное образование, международные стандарты, концептуальный подход, непрерывное образование.

Annotation: This article discusses how an innovative approach to literary education is a demand of the times.

Keywords: global education, international standards, conceptual approach, lifelong learning.

Bugungi kunda ta'lim oldida turgan eng muhim vazifalardan biri o'quvchilarni mustaqil fikrlay oladigan qilib tarbiyalashdan iborat. Xususan, yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, mavjud imkoniyatlardan eng qulay va serunimini tanlay olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an'analarimiz ruhida tarbiyalashda o'zbek adabiyoti fanining tutgan o'rnini va imkoniyatlari benihoya kattadir. Bugun yurtimizda kichik bir sohadan tortib xalq turmushi farovonligi uchun muhim bo'lgan yo'nalishlardagi o'zgarishlar, islohotlar shiddat bilan amalga oshirilayotirki, shu Vatanga qondosh har qanday millat



kishisi bunday tarixiy o'zgarishlarga loqayd qarab turolmaydi. Davlatimiz rahbari istiqboldagi taraqqiyotning kafolati ilm ahli va ziyolilar faoliyati bilan chambarchas bog'liq ekanini har bir uchrashuv, murojaatlarida ta'kidlab, uning rivojlanishi, taraqqiy etishi uchun bir qancha qaror va farmonlarni qabul qildi. Ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, ta'lim sohasidagi innovatsiya yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlari belgilab berildi. Bunday islohotlar, ayniqsa yoshlarning maqsadli harakatlariga rag'bat berish barobarida o'z kuchiga ishonishni uyg'otdi.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida ta'lim tizimi oldida yangi talablar paydo bo'lmoqda. Ayniqsa, adabiy ta'limga innovatsion yondashuv — yosh avlodni zamonaviy fikrlovchi, estetik didga ega, ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. An'anaviy usullar bilan birga, bugungi kun adabiyoti darslarida yangicha, kreativ va interaktiv yondashuvlar zarur.

Innovatsion yondashuvning mazmuni

Innovatsion yondashuv deganda — ta'lim jarayonini yangilash, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, darslarni interaktiv shaklda tashkil etish tushuniladi. Adabiy ta'limda bu:

Matnni tahlil qilishda kreativ metodlardan foydalanish,

O'quvchilarning shaxsiy fikrini shakllantirish,

Adabiy obrazlarni chuqur o'rganish orqali axloqiy-estetik tushunchalarni singdirish,

Zamonaviy texnologiyalardan (multimedia, veb-ilovalar, platformalar) foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Adabiy ta'limda qo'llaniladigan innovatsion metodlar

1. "B-B-B" usuli (Bilaman – Bilmoqchiman – Bildim):

Darsni boshlashdan oldin o'quvchilarning mavzu bo'yicha oldindan bilganlari aniqlanadi, dars davomida bilmoqchi bo'lgan savollar yuzaga keladi va oxirida o'zlashtirilgan bilimlar tahlil qilinadi.

2. Klaster usuli:



Asar qahramonlari, g'oyalari yoki syujet tarmoqlari asosida klasterlar tuzilib, o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinadi.

3. Rolga kirish (dramatizatsiya):

Asar qahramonlari rovida chiqish qilish orqali o'quvchi obrazlarni chuqur anglaydi, ifoda ko'nikmasi rivojlanadi.

4. AKT vositalaridan foydalanish:

1. Slaydlar, video roliklar,
2. QR-kodli testlar,
3. Onlayn viktorinalar (Kahoot, Quizizz) orqali o'quvchilarning darsga qiziqishi oshiriladi.

5. "Aqliy hujum" usuli:

O'quvchilardan fikr va savollar yig'iladi, ularning ijodiy salohiyati rag'batlantiriladi.

- Innovatsion yondashuvning afzalliklari
- Darslar samaradorligi oshadi – interaktiv vositalar orqali bilim mustahkam bo'ladi.
- Ijodiy fikrlash rivojlanadi – o'quvchi o'z nuqtai nazarini erkin ifoda qiladi.
- O'quvchi markazga chiqadi – faqat o'qituvchi emas, balki o'quvchi ham darsda faol ishtirok etadi.
- Estetik tarbiya beriladi – adabiyot orqali axloqiy va madaniy qadriyatlar singdiriladi.

Bugun boshqa sohalar qatorida adabiy ta'limda uzoq yillar samara bergan metod va usullar, an'anaviy yondashuvlarni saqlagan yoki rivojlantirgan holda global ta'lim metodlaridan milliy strategik maqsadlarimizga moslarini tanlab, ularni bosqichma-bosqich joriy qilish orqali adabiyot o'qitish metodikasini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish vaqti keldi. Professor S. Matjonning «Kitob o'qishni bilasizmi» nomli kitobida kitobxonlik madaniyati haqida so'z yuritiladi:

«Siz darsliklardan hayot va uning qonuniyatlari haqidagi bilimlar bilan tanishasiz, ulami aql kuchi bilan qabul qilasiz, xotirangizda qayd etasiz. Ammo bu bilim va xulosalar hissiyotingizga zarracha ta'sir ko'rsatmaydi. Badiiy asami o'qiganda sizdagi



bu «loqaydlik» faol munosabatga almashinadi. Qalbingiz cheksiz shodlikga chulgʻanadi - ruhlanasiz, gʻazablanasiz, iztirob chekasiz. Chunki u qalb dardi tufayli yaratilgan, dard esa suhbatdoshni befarq qoldirmaydi”.

Professorning ushbu fikrlariga tayangan holda, adabiy ta’limga oʻzgacha yondashish lozim.

Bugungi kunda adabiyot fanini oʻqitishning juda koʻp usullari mavjud. Bu usullardan oʻquvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlari, bilim darajasiga qarab foydalanish mumkin. VVI-VII sinflarda “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Sinkveyn” “B.B.B” usuli, “Menga oxirgi soʻzni bering”, “Test” usullaridan foydalanish yuqori samara beradi. Yuqori sinflarda ushbu usullar bilan birga “Tanqidiy tafakkur”, “Debatlar”, “Nuqtai nazarin boʻlsin”, “Har kim har kimga oʻrgatadi”, “Kubiklar”, “Insert” usullaridan oʻrinli foydalanish dars sifatining yuqori boʻlishi bilan birga, oʻquvchining shaxs sifatida shakllanishida, har qanday sharoitda ham oʻz nuqtai nazariga ega boʻlgan, erkin fikrlovchi inson boʻlishida katta yordam beradi. Bugungi oʻquvchi dunyoqarashi, fikrlashi, voqelikka munosabati nuqtayi nazari kechagidan farq qiladi. Tezkor axborot almashish zamonida, virtual olamda ulgʻayayotgan oʻquvchi bugun adabiy ta’limning qolipga solingan, stereotip fikrlar, hokim qarashlar, oʻzlariga tanish ma’lumotlarni qayta bayon qilib berishdek eskicha, qolipga solingan yondashuvlari bilan murosa qilolmaydi. Agar adabiyot oʻquvchilar tasavvurida ularning hayotiy ehtiyojlari oʻlaroq tasavvur hosil qilmas ekan, u zerikarli va quruq gʻoyalar majmui boʻlib qolaveradi. Holbuki, bugun umumiy oʻrta ta’lim tizimidagi adabiyot darslari aksar holatlarda oʻquvchining hayotiy ehtiyojini qondirish, uni hayotga tayyorlash, oʻz tafakkuri, tasavvuri, didi, saviyasi, umuman, ma’naviy qarashlarini yuksaltirish emas, balki oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun boʻladigan test sinovlariga tayyorgarlik nuqtai nazaridan oʻqitilayotgani hech kimga sir emas. Modomiki, bugungi murakkab globallashuv sharoitida ma’naviyatimizni izdan chiqarish maqsadida xorijdan oʻzanini yoʻqotgan, selday oqib kelayotgan zararli gʻoyalarga qarshi faqat milliy badiiy adabiyotgina immunitet hosil qila olishi mumkin ekan, shuning uchun bolada adabiyotga muhabbatni juda erta yoshdan singdirish lozim.



Adabiyot o'quvchilarni hayotga tayyorlashi jihatidan o'zga fanlardan tubdan farq qilgani uchun fan sifatida emas, balki shaxsni shakllantirishdan iborat vazifasining birlamchi omil ekanligini dalillovchi konseptual yondashuvlar asosida o'rgatilishi lozim. Dars metodi ta'limning ichki mazmun va mohiyatini belgilasa, uning tashkiliy shakllari didaktik kategoriya sifatida tashqi mazmunini anglatadi:

- o'quvchilarni individual xususiyatlari hamda bilim darajalariga muvofiq guruhlariga bo'lish yoki o'quvchi bilan yakka tartibda mashg'ulotlar olib borish;
- o'quvchilarning diqqatini tayanch tushuncha va iboralarga qaratish lozim. Yakuniy xulosalarni ana shu tayanch tushunchalar atrofida umumlashtirish;

- dars maqsadiga muvofiq interfaol metod, usul va vositalarni tanlash va ulardan unumli foydalanish;

- o'rta tashlanadigan har bir savolning ilmiyligi, mantiqiyligi va didaktik talablarga javob berishiga e'tiborni qaratish;

- vaqt taqsimoti masalasiga qat'iy amal qilish. 40-45 daqiqaga mo'ljallangan darslarda o'quvchining mustaqil bilim olishiga bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish. Qisqa vaqtdan unumli foydalangan holda izlanuvchanlik, ijodkorlik, hozirjavoblik va topqirlik masalasiga asosiy e'tiborni qaratish;

- ijodiy muhit yaratish asosida o'quvchilarni rag'batlantirib borish va boshqalar;

Dars o'qituvchining ilmiy va ilmiy- pedagogik mahoratini belgilovchi asosiy mezondir. Bir soatlik dars mashg'ulotlarini yirik san'at asariga qiyoslashning mohiyati ham shunda. Interfaol usullar umumiy o'rta ta'limdagi adabiyot darslarini yangi o'zanga burishda, ham shakl, ham mazmun jihatidan yuqori bosqichga olib chiqishda o'ziga xos manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiy ta'limni tubdan yangilashda uning milliy-tarixiy ildizi, milliy qadriyatlar va estetik asoslarga tayanish lozim. Hukm qilib aytganda, zamonaviy ta'lim jarayonida adabiy ta'limga innovatsion yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy metodlar bilan cheklanib qolmasdan, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va raqamli vositalardan foydalanish o'quvchilarning adabiy-estetik



didini shakllantirishda, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Innovatsion yondashuvlar o'quvchilarda faollik, mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Adabiy asarlarni zamonaviy kontekstda tahlil qilish, ular orqali universal qadriyatlarni ochib berish, multimediya va AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) asosida darslarni boyitish — bularning barchasi ta'lim samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, xalqaro standartlarga mos keluvchi konseptual yondashuvlar adabiy ta'limni global ta'lim tizimiga integratsiya qilish imkonini beradi. Bu esa nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy, madaniy-ma'naviy, axloqiy jihatdan o'quvchini har tomonlama kamol toptirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy ta'limda innovatsion yondashuvni joriy etish — bu zamon talabi bo'lib, u o'quvchilarni hayotga tayyorlashda, ularning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil sanaladi. Shu bois bu yo'nalishda izchil tadqiqotlar olib borish, metodik baza va o'quv dasturlarini yangilab borish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K.Usmonova."Adabiy ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalar",Toshkent-2004.
2. "Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi,(O'qitish met-si),Toshkent-2020.
3. M.Ochilov,"Yangi pedagogik texnologiya"Qarshi,"Nasaf"-2000-yil.